TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 23-avgust | 236-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 11 iyuldagi 497-10-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-iyundagi “Mahallalarni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va qiyofasini tubdan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 234-sonli qarori ijrosi ezasidan viloyat hokimining2024 yil 11 iyuldagi 497-10-0-Q/24-sonli qaroriijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlan hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-, 25- moddalariga asosan, **qaror qilaman**:

1. Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 11 iyuldagi 497-10-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov tuman Mahalla kengashi rahbari A.Sultonov va boshqa ta’luqli tashkilotlar bilan birgalikda Farg‘ona viloyati, Bag‘dod tumani, “Yuksalish” MFY tajribasi asosida joriy yil yakuniga qadar “Fayziobod” mahallasida, eksperiment tariqasida, xususiy sektor ishtirokida mahalla obodligini ta’minlash bo‘yicha tubdan yangi tizimni joriy etish choralari ko‘rilsin.

3. Mahalla obodligini ta’minlash bo‘yicha eksperiment doirasida:

mahallada mahalla obodligi bilan shug‘ullanuvchi “Mahalla servis kompaniyasi” (keyingi o‘rinlarda – Servis kompaniyasi) faoliyati tashkil etilishi;

Servis kompaniyasi mahalla fuqarolar yig‘ini kengashining qarori asosida salohiyatli tadbirkorlar orasidan tanlab olinishi;

mahalla fuqarolar yig‘ini hamda Servis kompaniyasi o‘rtasidagi xizmat ko‘rsatish shartnomasini tuzish, istisno tariqasida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirilishi;

Servis kompaniyasiga mahalla binosi hududida bepul foydalanish huquqi asosida xonalar ajratilishi hamda **1-ilovaga** muvofiq zarur texnik vositalar va uskunalar ularni soz va ishchi holatda saqlash sharti bilan bepul foydalanishga berilishi;

Servis kompaniyasiga ustuvor ravishda mahallada istiqomat qiluvchi, vaqtincha ishsiz, mavsumiy ishlarga chiqadigan fuqarolar jalb qilinishi;

Servis kompaniyasi hudud obodligini ta’minlash ishlarini mahalla fuqarolar yig‘inining buyurtmasi va nazorati asosida amalga oshirilishi;

Tuman mahallalari uyushmasi tomonidan Servis kompaniyalarining reyestri yuritilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-iyundagi 234-sonli qarori bilan Servis kompaniyalari faoliyatining samarali tashkil etilishini ta’minlash maqsadida eksperiment doirasida:

qarorning **1-ilovaga** muvofiq zarur texnik vositalar va uskunalar Uyushma tomonidan markazlashgan tartibda, istisno tariqasida maxsus axborot portalida e’lonni joylashtirmasdan va xarid qilish tartib-taomillarini elektron shaklda o‘tkazmasdan ichki tanlov savdolari asosida eng yaxshi takliflarni tanlash orqali xarid qilinishi;

Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan ishlar Servis kompaniyasi tomonidan bajariladi, bunda to‘lovlar, istisno tariqasida, tender va tanlov savdolarini o‘tkazmasdan, maxsus axborot portalida tegishli axborotlarni joylashtirmasdan va xarid qilish tartib-taomillarini elektron shaklda o‘tkazmasdan, mahalla fuqarolar yig‘ini kengashining qarori asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirishi;

mahalla aholisining obodonlashtirish va tozalik bilan bog‘liq muammolarini doimiy ravishda o‘rganish hamda bartaraf etish uchun “Fayziobod” mahalla fuqarolar yig‘iniga qo‘shimcha bir nafardan xodim ajratiladi.

Bunda, ushbu xodim shtatini saqlash bilan bog‘liq xarajatlar joriy yilda Uyushmaga 2024-moliya yili uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida amalga oshiriladi, 2025-yil 1-yanvardan boshlab har yili byudjet parametrlarida nazarda tutilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-iyundagi 234-sonli qarori bilan Servis kompaniyalari:

mahalla fuqarolar yig‘inining buyurtmasi asosida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish xizmatlarini bajarishi, ariqlar va sug‘orish tizimlarini tozalashi, ko‘chalarning tozaligini ta’minlash, ko‘chatlar ekish va parvarishlashi;

shartnoma asosida ijtimoiy soha obyektlarida obodonlashtirish va kommunal ekspluatatsiya xizmatlarini ko‘rsatishi;

shartnoma asosida chiqindilarni yig‘ib saralashi va chiqindi korxonalari tomonidan olib chiqib ketilishini tashkil etishi;

aholining ehtiyojlaridan kelib chiqib, **2-ilovaga** muvofiq boshqa turdagi ijtimoiy ahamiyatdagi pulli xizmatlarni ko‘rsatishi belgilanganligi inobatga olinsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-iyundagi 234-sonli qarori bilan Servis kompaniyalari mahallani obod qilish bilan bog‘liq ishlarni bajarish, shuningdek, mahalla aholisiga mazkur qarorga **2-ilovaga** muvofiq

boshqa turdagi ijtimoiy ahamiyatdagi pulli xizmatlarni ko‘rsatish doirasida **foyda**, **mol-mulk va yer soliqlari** hamda **ijtimoiy soliq to‘lovlarini** to‘lashdan,

shuningdek, Servis kompaniyasi ishchi xodimlari jismoniy shaxslardan olinadigan **daromad** solig‘idan ozod etilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Tuman Kadastr agentligining Toshkent tumani filiali (OXoldorov), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (N.Bazarbaev), Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi inspeksyasi (B.Eshnazarov) bilan birgalikda tashkil qilinayotgan yangi tizimning

samarali yo‘lga qo‘yilishini ta’minlash maqsadida **o‘n kun** muddatda “Fayziobod” mahallaga tutash bo‘lgan hududlarda chiqindi yig‘ish shoxobchalarini qurish uchun maqbul yer maydonlarini ajratish yuzasidan taklif kiritilishini ta’minlasin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-iyundagi 234-sonli qarori bilan Mahalla va Servis kompaniyalari uchun bino-inshootlarni qurish bo‘yicha buyurtmachi etib – Uyushma va uning hududiy bo‘limlari, pudratchi etib – Uyushma huzuridagi “Mahalla binolarini qurish va kapital ta’mirlash direksiyasi” MChJ belgilanganligi;

“Mahalla binolarini qurish va kapital ta’mirlash direksiyasi” MChJga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordamchi pudrat tashkilotlarini yollash huquqi berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

9. Ushbu qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i N.Bazarbaev, O‘zbekiston mahallalari uyushmasining Toshkent tumani kengashi boshlig‘i A.Sultonov belgilansin.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari R.Rixsiev hamda tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **S.Ergashev**

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 23-avgustdagi
236-10-212-Q/24-son qaroriga
1-ilova

“Mahalla servis kompaniyasi” uchun xarid qilinadigan zarur texnik vositalar va uskunalar RO‘YXATI

T/r	Texnik vositalar va uskunalar nomi	Birligi	Miqdori	Talab etiladigan mablag‘ning cheklangan miqdori *(mln.so‘m)*
Jami	**72,0**			
1	Elektr motoroller	dona	2	50,0
2	Motokultivator	dona	1	6,0
3	Dezinfeksiya uskunasi	dona	1	0,5
4	Pulverizator (kompressori bilan)	dona	1	2,0
5	Elektr generator	dona	1	6,0
6	Motoarra	dona	1	1,5
7	Bolgarka	dona	1	0,5
8	Perforator	dona	1	3,0
9	Drel	dona	1	0,5
10	Shrupovyort	dona	1	0,5
11	Payvandlash uskunasi	dona	1	1,5

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 23-avgustdagi
236-10-212-Q/24-son qaroriga
2-ilova

“Mahalla servis kompaniyasi” tomonidan mahalla aholisiga ko‘rsatiladigan pulli xizmatlarning namunaviy RO‘YXATI

T/r	Xizmat turlari nomi
1.	Elektrik xizmati
2.	Santexnik xizmati
3.	Yerga ishlov berish
4.	Daraxtlarga shakl berish va ishlov berish
5.	Maishiy texnikalarni ta’mirlash
6.	Gilam yuvish
7.	Payvandlash
8.	Tandir va o‘choq qurish
9.	Uy-jihozlarini ta’mirlash (mebel)
10.	Oyna va rom o‘rnatish
11.	Quyosh paneli o‘rnatish
12.	Quduq qazib berish
13.	Yordamchi inshootlar qurish
14.	Ko‘mir tashish
15.	Oqova handaqlari va o‘ralar qazish, ularni tozalash
16.	Uyni ta’mirlash
17.	Isitish qozonlarini yasash va o‘rnatish
18.	Mo‘rilarni tozalash
19.	O‘t o‘rish
20.	Ko‘chat ekish va yetkazib berish
21.	Hasharotlarga qarshi dorilash
22.	Tegirmon xizmati
23.	Devorlarga rang berish

Izoh: *Mazkur ro‘yxatga O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tomonidan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkinligi inobatga olinsin.*